

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DIQQAT JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Amirova Nodira Shamshiyevna

**Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich
talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17318510>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat jarayonini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, ularning yosh davriga xos kognitiv imkoniyatlari hamda o'qituvchining bu jarayondagi roli tahlil etilgan. Diqqatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki (psixik holat, motivatsiya) va tashqi (ta'lim muhiti, o'qituvchi yondashuvi) omillar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot Vygotskiy, Rubinshteyn, Leontyev va Galperinlarning psixologik nazariyalariga tayangan.

Kalit so'zlar: diqqat, psixologik jarayon, boshlang'ich ta'lim, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, o'qituvchi roli.

Kirish

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning psixik rivojlanishida, ayniqsa, diqqat jarayonining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilar atrof-muhitdagi hodisalarni idrok etish, o'qituvchi nutqiga e'tibor qaratish va o'quv topshiriqlarini ongli ravishda bajarish orqali diqqatning ixtiyoriy shakllarini rivojlantira boshlaydilar. Shu boisdan, pedagogik jarayonda o'qituvchining psixologik yondashuvi, o'quvchilarning individual diqqat xususiyatlarini inobatga olish katta ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda diqqat jarayoni beqaror, qisqa muddatli bo'lib, ularni turli o'yinlar, tasviriy faoliyat, emotsional rag'batlantirish orqali barqarorlashtirish mumkin [1]. Shu jihatdan, o'qituvchi dars jarayonida interfaol metodlardan, ko'rgazmali vositalardan hamda o'quvchilarning yosh psixologiyasiga mos topshiriqlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir [2].

Bundan tashqari, o'quvchilarning diqqatini shakllantirishda oila, maktab muhiti va ijtimoiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'qituvchi tomonidan darsdagi emotsional muhitni ijobiy tashkil etish, o'quvchilarning ishtirokini qo'llab-quvvatlash diqqatni barqarorlashtirishning eng samarali yo'llaridan biridir [3]. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda psixologik asoslangan yondashuv o'quvchilarning kognitiv faoliyatini, xususan, diqqatni shakllantirish jarayonini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Asosiy qism.

Bilish jarayonlari -insonni tashqi va ichki dunyosidan ma'lumotlarni qabul qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish jarayonlaridan iborat.

Kognitiv jarayonlar insonning o'rganish va muloqot qilish tarzini shakllantiradi Bilish jarayonlari turlari:

Idrok-insonning sezgi organlari orqali atrof-muhitdagi obyektlarni va hodisalarni qabul qilish va ularga mazmun berish jarayonidir.

Idrok bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlari orqali amalga oshiriladi va ular o'zaro uyg'unlashgan holda ishlaydi. Xususiyatlari:Idrok-faqat obyektlarning shakli yoki rangi haqida emas balki ular orasidagi bog'liqlik haqida ham ma'lumot beradi. Idrok jarayoni tajriba va bilishga bog'liq.

Diqqat -insonning malum bir obyektga yoki vazifaga ongli ravishda yoki ixtiyorsiz ravishda etibor qaratishi. Bu kongnitiv jarayonning asosiy qismi bo'lib, boshqa bilish jarayonlarini boshqaradi.

Ixtiyorsiz diqqat-bu insonning ongli ravishda boshqarilmaydigan va tashqi stimullar ta'sirida yuzaga keladigan diqqatdir. Bu jarayonlar ko'pincha kutilmagan yoki qiziqarli bo'lgan stimullar bilan bog'liq holda ro'y beradi.

Xususiyatlari: tashqi muhitdagi kutilmagan o'zgaroshlar (masalan qattiq ovoz yorqin nur) tasirida yuzaga keladi.

Insonning ichki qiziqishi va ehtiyojlariga asoslanadi (masalan och odam ovqatni ko'rib diqqatini unga qaratadi).Inson buni boshqara olmaydi yoki ongli ravishda bu diqqatni tanlamaydi.

Ixtiyorsiz diqqat-insonning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez javob berish qobiliyatini taminlaydi. Bu biologik jihatdan himoya mexanizmi sifatida rivojlangan.

Ixtiyoriy diqqat insonning maqsadli faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u ongli ravishda boshqariladi. Bu diqqat turi ko'pincha, ichki motivatsiya, maqsad va harakat rejasi asosida shakllanadi.

Xususiyatlari:

Ongli ravish boshqariladi va ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Iroda kuchni talab qiladi chunki odam o'zini tashqi chalg'ituvchi omillardan cheklashga harakat qiladi.

Faoliyat davomida davomiyligi oshib boradi, yosh o'tgani sari rivojlanadi,

1. Ixtiyoriy diqqat uchun:Reja tuzish,faoliyat uchun aniq maqsadlar qo'yish, mashqlar konsentratsiyasini oshirishga yordam beradigan mashqlarni bajarish (yoga yoki meditatsiya).

Motivatsiya: faoliyatning foydaliligini tushunib ichki qiziqishni kuchaytirish.

2. Ixtiyorsiz diqqat uchun: tashqi muhitni nazorat qilish (masalan, chalg'ituvchi omillarni kamaytirish).

1. Konsentratsoya - diqqatning bir nuqtaga to'planishi. Inson bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatni bajarishga qodir emas,shuning uchun diqqatni maqsadga yo'naltirishimiz mumkin.

2. Samaradorlik- diqqatning samarali ishlash qobiliyati.

3. Yengillik va uzoq davom etish va turli vaqt mobaynia samarali psixolohik barqarorlik bo'lishi kerak.

4. Qisqa muddatli va uzoq muddatli diqqatning turli muddatlarda faoliyat ko'rsatishi. Ba'zi vazifalar qisqa muddatli qisqa muddatli diqqatni talab qilsa, boshqalar uzoq muddatli etibor va konsentratsoyani talab qiladi.

Lev Vygotsky: diqqat va boshqa kongnitiv jarayonlarni ijtimoiy kontekstda o'rganishni qo'lladi.U diqqatning o'zgaruvchan va ijtimoiy madaniyatga bog'liq bo'lishini takidladi.Vygotskiyning tadqiqotlari bolalar o'qitish jarayonida diqqatni boshqarishning ahamiyatini ko'rsatadi. [4]

Abdurahmonov.R. O'zbekistonlik olim diqqatning yoshlar o'rtasidagi rivojlanishini o'rgandi.Uning tadqiqotlari yoshlarni diqqatini o'stirish va o'quv samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik yondashuvlarni taklif qildi.[5]

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat jarayonini shakllantirish bu nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanishning ham muhim tarkibiy qismidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda diqqatni rivojlantirish o'qituvchining psixologik yondashuvi, darsning tashkil etilishi, o'yinli va interfaol metodlarning qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq.

Psixologik nuqtai nazardan, bu yosh davrida diqqat asosan bevosita (ixtiyorsiz) shaklda namoyon bo'ladi, biroq o'qituvchi tomonidan maqsadli rag'bat, ijobiy emotsional muhit va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish orqali ixtiyoriy diqqatni shakllantirish mumkin. Diqqatni boshqarish ko'nikmalari esa o'quvchining o'qish motivatsiyasi, o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil fikrlash salohiyatiga bevosita ta'sir etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Юлдашева М. Бошланғич синф ўқувчиларида диққатни ривожлантиришнинг психологик асослари // Психология ва педагогика илмий журнали. – Тошкент, 2022. – №4. – Б. 45–49.
2. Турсунов С. Ўқувчиларда ихтиёрий диққатни шакллантиришда ўқитувчининг роли // Таълим ва инновация илмий-амалий журнали. – Тошкент, 2021. – №2. – Б. 33–38.
3. Қодирова Д. Бошланғич таълимда диққат ва тафаккур ривожланишининг ўзаро боғлиқлиги // Педагогик изланишлар илмий журнали. – Тошкент, 2023. – №1. – Б. 56–60.
4. Выготский Л. С. Психология развития ребёнка. — Москва: Педагогика, 1984. — 350 с.
5. Абдурахмонов Р. Ёшларда диққатнинг ривожланишини ўрганиш ва уни ошириш усуллари // Психология ва таълим илмий журнали. – Тошкент, 2022. – №3. – Б. 41–46.